



## STATISTIK TAHLIL

TARAQQIYOT QURILISHDAN —  
POYDEVOR YARATISHDAN BOSHLANADI

Mamlakatimizda investitsion muhitni yanada yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatini jadal taraqqiy ettirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar davom etmoqda. Ular tarkibida iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishi uchun asosiy poydevor hisoblangan qurilish sohasiga ham katta e‘tibor qaratilayotir. Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni so‘nggi yillarda oshib borishi samarali islohotlar natijasi sifatida namoyon bo‘lyapti. Yurtimizda 2014-yilning 1-yanvar holatiga 18 ming 618 ta qurilish korxonalar va tashkiloti faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, ular soni 46 ming 971 taga yetdi.

Olib borilayotgan islohotlarning natijalari bo‘yicha ma‘lumotlar tezkorlik va shafqat bilan statistik raqamlarda ham o‘z ifodasini topyapti. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, statistika amaliyotida qurilish ishlari hajmi — moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan turar joy va noturar joy binolari

hamda muhandislik inshootlarining yangi obyektlari qurilishi, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish bo‘yicha asosiy, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va subpudrat shartnomalari asosida bajarilgan qurilish-montaj ishlari qiymati sifatida hisob-kitob qilib boriladi.

▶ Davomi 4-betda

## ADABIY ALOQALAR

KO‘HNA DARAXT VA  
UNING HAYOTBAXSH SOYASI

Ozarbayjonning Boku shahrida II Turkiy dunyo adabiyoti va kitob festivali bo‘lib o‘tdi

Festivalda O‘zbekiston, Ozarbayjon, Turkiya, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston kabi turkiy tili davlatlardan professor-tadqiqotchilar, ijodkor adiblar ishtirok etdi.

Xalqaro festival doirasida Ozarbayjon milliy nashriyotlarining kitoblar yarmarkasi, yangi nashrlar taqdimoti, nufuzli ijodkorlarning dastxat kunlari tashkil etildi. Shuningdek, tadqiqotchi

olimlarning ma‘ruzalari tinglandi, she‘riy chiqishlar va kuy-qo‘shiqlar, filmlar namoyishlari bo‘lib o‘tdi.

▶ Davomi 2-betda

## YANGICHA YONDASHUVLAR

ABITURIYENT HAM, TALABA  
HAM OVORA BO‘LMAYDI

O‘qishga doir hamma muammo bir platforma orqali hal etiladi



Oliy, o‘rta maxsus, professional ta‘lim hamda fan va innovatsiyalar sohasini raqamlashtirish jadal sur‘atda davom etmoqda. Xususan, talabalar, abituriyentlar hamda ularning ota-onasiga “yagona darcha” tamoyili asosida sifatli va tezkor xizmat ko‘rsatish uchun joriy yilning iyun oyidan my.edu.uz yagona ta‘lim xizmatlari portali ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

▶ Davomi 5-betda

## TIL — MILLAT KO‘ZGUSI

## So‘zlar sinoati

## JAM BO‘LGAN OLTIN SANDIQ

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” qanday mezonlarga ko‘ra nashr etildi?

“Devonu lug‘otit turk” yaratilganidan to‘rt yuz o‘ttiz yil o‘tib, turkiy til istiqboli Hazrat Alisher Navoiyni qayg‘uga soladi. Hazrat “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida:

“...turk shuarosikim, forsiy til bilarangin ash‘or va shirin guftor zohir qilurlar. Ammo sort ulusining arzoliddin ashrofig‘acha va omiysidin donishmandig‘acha hech qaysi turk tili bila takallum qila olmaslar va takallum qilg‘onning ma‘nisi ham bilmaslar”, deya mutaassir bo‘ladi. Navoiydan to‘rt yuz yigirma yil keyin Abdurauf Fitrat tilimizning boyligi ushbu tildagi so‘zning ko‘pligi, so‘z yasalishi va til grammatik qoidalarining mukammaligida, deb ta‘kidlaydi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” haqida gapirib, “Navoiyning kitobi turkchening boylig‘ini ochibg‘ina bildira olmasa ham, turkchada so‘z ko‘bligini u yaxshi biladir”, deydi.

▶ Davomi 6-betda

2023  
9-IYUL  
O‘ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI SAYLOVI

Gazetamizning bugungi sonida O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Robaxon Mahmudovanning saylovoldi tashviqoti bo‘yicha maqola chop etilmoqda. Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e‘lon qilinyapti.

▶ 3-betga qarang.

## KUN MAVZUSI

Shu kunlarda mamlakatimiz hayotidagi muhim siyosiy tadbir — muddatidan ilgari Prezident sayloviga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rilmoqda. Saylovni milliy va umume‘tirof etilgan xalqaro normalarga mos demokratik tamoyillar asosida, erkin va adolatli, yuqori tashkiliy-huquqiy darajada o‘tkazish uchun qonuniy asoslar va barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

JAHON HAMJAMIYATI  
SAYLOV ORQALI  
YANGI O‘ZBEKISTONGA  
BAHO BERADI

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni qabul qilish uchun o‘tkazilgan referendumda mamlakat taqdiriga daxldor faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etgan xalqimiz Prezident saylovida ham munosib tanlovni amalga oshirishiga ishonchimimiz komil.

Demokratik jarayonlarning muhim xalqchil shakli hisoblangan saylov qonun talablari doirasida o‘tkazilishini ta‘minlash va unda barcha

fuqarolarning erkin-erkin, faol ishtirok etib, xolis ovoz berishi uchun har tomonlama qulay sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Binobarin, saylov borasida o‘tgan yillar davomida to‘plangan milliy tajriba va jahon hamjamiyati tan olgan saylovga oid huquq normalari shu yil 9-iyul kuni Prezident saylovini muvaffaqiyatli o‘tkazishga asos bo‘ladi.

▶ Davomi 2-betda

## BIR HUDUD — BIR MAHSULOT

## Malinachilik klasteri

VODILDAN  
DUNYO BOZORLARIGA

Farg‘ona tumanidagi Vodil qishlog‘ida malina yig‘im-terim mavsumi boshlandi. Mahsulotning bozori chaqqon. Bugungi kunda bir kilogramm malina ulgurji narxlarida 20-35 ming so‘mdan sotilmoqda. Bir sotix malinazordan o‘rta hisobda 150-200 kilogrammgacha hosil terib olinsa, daromad cho‘g‘ini chamalash qiyin emas.

▶ Davomi 4-betda











